

G'O'ZA KASALLIKLARI BILAN TANISHISH

Rustamova Zamira Istam qizi
Forish tuman kasb-hunar maktabi
ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya: ushbu maqolada go'za, uning biologik, xo'jalik ahamiyati, uchraydigan kasalliklar, zararkunandalar xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: go'za, zamburug', vilt, vertitsillyoz va fuzarioz vilt, gommoz, ildiz chirishi.

Аннотация: В данной статье даны сведения о Гузе, его познавательном, хозяйственном значении, характере встречающихся болезней, вредителях.

Ключевые слова: увядание, грибковое увядание, вертициллезное и фузариозное увядание, ГОММОЗ, корневая гниль.

Aannotation: this article gives ideas about the gooseberry, its biological, economic significance, diseases that occur, pests.

Keywords: Gouza, zamburug, vilt, verticilosis and fuzariosis vilt, gommoz, root rot.

KIRISH

Jahonda g'o'zaning 80 dan ortiq mamlakatda yetishtiriladi. Asosiy paxta yetishtiruvchi mamlakatlar: Xitoy (3,7 mln.ga, 30,6 s/ga, 11,4 mln. t), AQSH (5,4 mln. ga, 17,5 i/g'a, 9,5 mln.t), Hindiston (9,0 mln.ga, 6,9 s/ga, 6,2 mln.t), Pokiston (2,9 mln.ga, 15,3 s/ga, 4,4 mln.t). Shuningdek, Braziliya, Turkiya, Misrda ham katta maydonlarni egallaydi. 20-asr oxiriga kelib asosiy paxta yetishti-ruvchi mamlakatlardan Xitoyda 3,8, AQShda 3,6, Hindistonda 2,0, pokistonda 1,5, Turkiyada 0,8 mln.t; jahon bo'yicha 18,2 mln. t paxta tolasi yetishtirildi (1999). O'zbekiston paxta tolasi yetishtirish bo'yicha jahonda 4-o'rinda turadi (g'o'za ekin maydoni 1440,8 ming ga, hosildorligi 24,5 s/ga, yalpi hosili 3537,1 ming t; 2004).

Paxtachilikda eng ko'p tarqalgan kasalliklar - ildiz chirishi, vilt, gommoz kabilardir. Bu kasalliklar natijasida go'zada modda almashinuvi buziladi hamda o'simlikda morfologik va fiziologik o'zgarishlar yuzaga keladiki, oqibatda o'simlik barglari, meva organlari to'kilib qurib qoladi.

ASOSIY QISM

Go'za kasalliklari faqatgina paxta hosilini kamaytirib qolmay balki, paxta tolasini va urug'lik chigit sifatini ham pasaytiradi. Bu kasalliklar oqibatida paxta hosilini 10 foizi yo'qotilmoqda. Shu sababli bu kasalliklar tarqatuvchisi bo'lgan bakteriya va zamburug'lar tabiatini chuqur o'rganib ularga qarshi kurash choralarini toppish va qo'llash eng muhim masalalardan biridir.

Ildiz chirish kasalligi: go'za ildiz chirish kasalligini tuproqda yashovchi *R.birsoctonia* Soalaon *K* zamburug'lari qo'zg'atadi. Bu paxtachilikda eng ko'p tarqalgan kasallik turi bo'lib, go'za nihollarini unib chiqqandan 2-3 chinbarg chiqarguncha davom etadi. Yosh o'simlikda ildiz bo'g'zi kasallanadi. Kasallangan joy oldin sarg'ayadi va qo'ng'ir tusga kiradi, u yara ko'rinishini olib, suvsimon dog'lar paydo bo'ladi va nihol po'sti titilib ketadi. Ayrim hollarda niholni yog'ochlik qismi ochilib qoladi.

Kasallangan o'simlik barglari so'lib, bosh poya so'lib qoladi va nihol quriydi. Bahorda harorat past va seryog'in bo'lsa, tuproq namligi ortib ketib, bu kasallik ommaviy tarzda tarqaladi va ko'chat nihoyatda siyraklashib ketadi.

Vertitsillioz kasalligining go'zadagi ichki va tashqi alomatlari:

- bargda xronik forma paydo bo'lishi;
- sog'lom go'zapoyaning ko'ndalangiga qirqilgani;
- go'zaning tez so'lishi;
- barglarning to'kilishi, ko'saklarning yetilmay ochilib ketish.

Dalani sifatli tekislash, tuproqni yaxshi donadorligini ta'minlash, chigitni normal chuqurlikda, 4-5 sm ekish, tuproq qatqalog'ini o'z vaqtida yumshatish, chigitni ekish oldidan orqali 70 foiz tigam bilan ishlash, yog'ingarchilikda keyin o'z vaqtida kultivatsiya o'tkazish orqali bu kasallik bilan kurashish mumkin.

Qora ildiz chirish kasalligi. Asosan ingichka tolali go'zada keng tarqalgan bo'lib, bu kasallikni tuproqda yashovchi *Thielavionsis basicola* zamburug'i tarqatadi. Paxta hosilini 10-15%ga kamaytiradi. 5-6 kunlik nihollarda ildiz chiriydi, yetuk o'simliklarda ildiz qorayadi va o'simlik so'lib qoladi. Ko'klamda yosh nihollar kasallansa ko'chat siyraklashib ketadi va qayta ekishga to'g'ri keladi.

Kuzda go'za qora ildiz chirish kasalligiga uchrasa, go'za tupi so'liydi, biroq undagi mevalar saqlanib qoladi. Barglar so'lib quriy boshlaydi, poya ham qurib qoladi. O'simlik tekshirilganda ildiz bo'g'zi yiriklashib o'z shaklini yo'qotgan bo'ladi va u kesib ko'rilsa 5-15 sm uzunlikdagi to'qimalar qo'ng'ir qizg'ish tusga kirgani kuzatiladi.

Kurash choralari: dalani go'zapoyadan to'liq tozalash, go'z beda almashib ekishni qo'llash, kasallikka chidamli navlar ekish.

Vilt kasalligi. Bu kasallikni *verticillium danteick* zamburug'i tarqatadi. Vilt bilan go'za niholi 3-4 chinbarg chiqarganda kasallana boshlaydi. Barglar cheti sarga'aya boshlaydi, 2-3 kundan keyin ko'kimtir Pushti rangga kirib quriydi va to'kilib ketadi. Go'za bu kasallikka uchraganda dastlab pastki barglar, so'ngra yuqoridagi barglarda sarg'ish dog'lar paydo bo'lib, kasallik kuchayib brogan sari u qo'ng'ir rangga kiradi va ko'pincha to'kilib ketadi. Kasallik yoz oxirigacha kuchayib ketib o'simlik butunlay qurib qolishi mumkin. Ayrim hollarda o'simlik avgust oxiri sentabr boshida birdaniga vilt bilan kasallanib, uni qurib qolishi kuzatiladi. Bu kasallik bilan o'rta tolalai go'zalar kasallanadi.

Fuzarioz vilt kasalligi. Bu kasallik bilan asosan ingichka tolalai go'za kasallanadi. Keying paytlarda o'rta tolalai go'zalarda ham uchramoqda. Kasallikni *Tusarium oxysporum* zamburug'i tarqatadi. Bu kasallik go'za nihollari unib chiqqandan topishguncha go'zani zararlaydi. Kasallangan o'simlik barg shapaloqlarida sarg'ish tomir to'r to'qimalari paydo bo'ladi va bu bora – bora butun barg shapalog'ini egallaydi. Keyinchalik kasallangan o'simlikni ildiz bo'g'zi yo'g'onlashadi bosh poyadagi bo'g'in oraliqlari qisqaradi, burglar qisman to'kilib ketadi, qolganlari bujmayib qoladi. Agar yosh o'simlik kasallansa, meva umuman paydo bo'lmaydi, o'simlik qurib, ko'chat siyrakashib ketishi mumkin. Kasallikning umumiy tarqalishi shonalash fazasiga to'g'ri keladi. Zamburug' harorat +18-27⁰ bo'lganda juda yaxshi rivojlanadi.

XULOSA

G'ozza qimmatli texnika o'simligi. G'ozadan olinadigan mahsulotlardan to'qimachilik, tikuvchilik, kimyo, aviatsiya, avtomobil, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida keng foydalaniladi. Paxta tolasidan kiyim-kechak va texnika gazlamalari tayyorlanadi. Chigitidan lingp, paxsha moyi, kunjara, shulxa, shrot olinadi. Paxta moyi (chigit tarkibida 22—29%) qimmatli oziq mahsuloti bo'lib, glitserid, Ye, A vitaminlari va D provitamini hamda linolat kislotaga boy. Paxta shulxasi va shroti chorvachilik uchun yuqori sifatli to'yimli ozuqa hisoblanadi. Paxta shrotidan ajratib olingan oqsilli ozuqa yosh hayvonlarga sut o'rnida beriladi. G'ozapoyadan selluloza, qog'oz, karton, mebellar uchun plita materiallari ishlab chiqarishda foydalaniladi. Barglaridan limon, olma kislotalari, o'sish stimulyatorlari olinadi, chanoqlari ksilit ishlab chiqarishga yaraydi.

Zararkundalari. Go'zaga umurtqasiz hayvonlarning 214 turi zarar yetkazadi, bulardan 207 tasi bo'g'imoyoklilar, shu jumladan, 203 tasi — o'rgimchakkana, shira, kuzgi tunlam, karadrina, g'ozza tunlami va shu kabi hasharotlardir (qarang O'simlik zararkunandalari). Zararkunandalarga qarshi kurashda agrotexnik, biologik, kimyoviy, integral himoya usullaridan foydalaniladi (qarang O'simliklarni himoya qilish).

Kasalliklari: vertitsillyoz va fuzarioz vilt, gommoz, ildiz chirishi va boshqa G'ozza ekiladigan maydonlarda begona o'tlarning 74 turi, chunonchi ajriq, g'umay, qo'ypechak, salomalay-kum, itqo'noq, qora kurmak va boshqalarlar ko'p uchraydi. Begona o'tlarga qarshi mexanik va kimyoviy usullar bilan kurash olib boriladi (qarang O'simlik kasalliklari).

Adabiyotlar

1. Maltsev.A.M., G'ozza, uning turlari, tuzilishi va rivojlanishi, Toshkent. 1960.
2. Rjevskiy.G. K., G'ozza, G'ozzaning fiziologiyasi va bioximiyasi, T., 1961.
3. Yuldashev.S.X., Regulyatsiya rosta xlopchatnika s pomoshyu retardantov, T., 1977.
4. Abdullayev.A.A., Omelchenko M.V., G'ozza turlari, T., 1977.
5. Pogosov.Yu. Raqimboyev O, G'ozza o'stirishning yangi usuli, T., 1977.
6. Lifshits. E.A., Muslimov S.M., G'ozzani sug'orish, T., 1980.
7. Dariyev.A.S., Abdullayev.A.A., Xlopchatnik: (Anatomiya, morfologiya, proisxojeniye), T., 1985.
8. Sadmkov.A.S., Xlopchatnik — chudo rasteniye, Moskva., 1985.